

## JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH

**Jumayeva Zamira Bustonovna**

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11624179>

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi vazifalari hamda soliq tizimi modernizatsiyasining qo'shimcha chora-tadbirlari ijrosidan kelib chiqib jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotining hozirgi holati, uning muammolari va tortishuvli masalalari hamda uning samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar va soliqqa tortish, aholi daromadlari, jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, daromad solig'i elementlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to'lash tartibi.

### IMPROVING THE PERSONAL INCOME TAXATION MECHANISM

**Abstract.** In the article, based on the implementation of the tasks of the tax policy improvement concept and additional measures of the tax system modernization in the Republic of Uzbekistan, the current state of the practice of taxing the income of individuals, its problems and controversial issues, as well as the directions for increasing its efficiency are considered.

**Key words:** taxes and taxation, population income, individuals, individual income tax, income tax elements, tax calculation procedure, tax payment procedure.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОХОДОВ ЛИЦ

**Аннотация.** В статье на основе реализации задач концепции совершенствования налоговой политики и дополнительных мер модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан рассмотрено современное состояние практики налогообложения доходов физических лиц, ее проблемы и спорные вопросы. а также рассмотрены направления повышения его эффективности.

**Ключевые слова:** налоги и налогообложение, доходы населения, физические лица, индивидуальный подоходный налог, элементы подоходного налога, порядок исчисления налога, порядок уплаты налога.

### KIRISH

O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda soliqlarning barqaror tushumini ta'minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga pozitiv ta'sir etuvchi o'zaro uyg'unlashgan soliq tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Bu masalalarni hal qilish uchun respublikamizda soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tekis taqsimlash, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish, aholining real daromadlarini oshirishda soliq tizimining muhim elementi hisoblangan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, soliqlar faqat xalq va davlatning moliyaviy ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solishning samarali vositasi

sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, soliq tizimiga kiritilgan soliqlarning har biri har qanday mamlakatda uning oldiga qo'yilgan vazifalarini to'liq, yuqori darajada amalga oshirishi kerak.

Soliqlar yukining yuqoriligi albatta ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi hamda aholi va yuridik shaxslarning daromadlarini yashirish, soliq to'lashdan qochishga, ya'ni davlat budjetini talab darajasida tashkil eta olmasligiga olib keladi <sup>1</sup>.

Soliqlar paydo bo'lishi ob'ektiv ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, insoniyat jamiyatining mavjudligi va yanada rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit edi. Soliqlarning asosiy maqsadi davlat ehtiyojlarini qondirishdir.

Davlatning rivojlanishi va uning vazifalarini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlarga oid ilmiy qarashlarning evolyusiyasi bilan birga keladi.

Iqtisodiy fanlar doirasida soliqlarning umumiy nazariyasi paydo bo'ldi. Soliqlar umumiy nazariyasining asosiy poydevori ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni masalasidir. Soliqlar bir narsa evaziga to'lanishi kerak yoki ular bepul, boshqacha aytganda betarafdir.

#### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Davlatning bozor sharoitida iqtisodiyotni maqsadli boshqarishning shaffof mexanizmlarini yaratish orqali 2021 yildan mamlakatimizda o'rta sinfni shakllantirish, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish hamda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorlar joriy etilishini inobatga olib jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning yangi sifat tavsifini ta'minlashga qaratilgan tegishli yo'riqlar va ko'rsatmalar ishlab chiqilishi lozim.

Ushbu yo'riqlar va ko'rsatmalarning ishlab chiqilishi va tez fursatlarda hayotga tatbiqi daromadlarni soliqqa tortishda ijtimoiy adolat tamoyili ijrosi ta'minlanishiga hamda jismoniy shaxslarning daromadlari legallashtirishidan hamda soliq qonunchiligiga itoatkor fuqarolarning o'z kelajagi va muvaffaqiyatlariga bo'lgan ishonchining oshirishini ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish va bunda soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'zaro manfaatli faoliyatini ta'minlashi lozim. Bunda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni samarali faoliyat yurituvchi soliq ma'muriyatchiligi instituti orqali davlatga bo'lgan ishonchi ortadi.

#### **1-rasm. 2024-yil uchun qat'iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. O'quv qo'llanma. – T.:Akademiya, 2012. – 124 b.

<sup>2</sup> [https://www.instagram.com/soliqpressa/p/C1q2qV0NXLg/?img\\_index=1](https://www.instagram.com/soliqpressa/p/C1q2qV0NXLg/?img_index=1)

**2024-yil uchun qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini**  
(Soliq kodeksi, 383-modda)

Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalarini (so'mda)			
	Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1 Chakana savdo: oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	907 500	726 000	363 000	242 000
dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	302 500	181 500	121 000	60 000
gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	302 500	181 500	121 000	60 000
2 Maishiy xizmatlar	302 500	181 500	121 000	60 000
3 Boshqa faoliyat turlari	302 500	181 500	121 000	60 000
4	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:			
3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	181 500			
3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	275 000			

\* Mazkur stavkalar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2024-yil 1-fevraldan kuchga kiradi.  
\* 2024-yil yanvar oyida qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i 2023-yildagi stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Davlat fiskal vazifalari keskinligini e'tiborga olib hamda ijtimoiy adolat tamoyili ijrosini ta'minlash maqsadida jismoniy shaxslarning manbaidan olinadigan daromadlarini soliqqa tortish tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan "jismoniy shaxs mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadni soliqqa tortishda ikkinchi va undan keyingi ro'yxatdagi mol-mulk ijarasidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq to'lovlarida o'sib boruvchi usulni joriy etish" hamda "jismoniy shaxslar daromadlari legalligi va ular haqiqiy miqdorini hisobga olishga oid soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish yuzasidan jismoniy shaxslar "o'ta qimmat xaridlari bo'yicha hisob yuritilishi tizimining joriy etilishi" lozim".

### TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar ular daromadlarining muayyan qismini davlatning markazlashgan fondini shakllantirish uchun davlat budjetiga undirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir vaqtda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hamda jismoniy shaxslarning faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur soliq asosiy elementlarini tadqiq etish amaldagi soliq qonunchiligi asosida belgilanadi

### NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmonida soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozimligi belgilab berilgan edi. Ushbu vazifani bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389 sonli Qarori qabul qilindi va ushbu qaror bilan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi" ma'qullandi. Shuningdek, ushbu qarorga asosan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"ning asosiy

vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berildi. Strategiyada belgilanganidek, 2021 yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig‘ini to‘lovchilar sonini 1,5 baravar oshirishga erishildi.

**1- jadval. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish<sup>3</sup>**

T/r	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda		
			Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlaridagi shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1	Uy-joylar:				
	turar joy	umumiy	25 000	12 000	5 000
	noturar joy	maydonning 1 kv.metri uchun	40 000	23 500	10 000
2	Avtomobil transporti:				
	engil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	780 000		
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 550 000		

**XULOSA VA MUNOZARA**

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz:

Aholi turmush tarzini yaxshilash istiqbollari asoslangan yangi soliq siyosati asosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish ularni bartaraf etish yuzasidan davlatning tezkor tadbirlari tizimi ishlab chiqilishi lozim.

- ijtimoiy adolat va ijtimoiy yo‘naltirilganlikning aniq belgilari, soliq to‘lovchi uchun soliq to‘lash majburiyati yuzaga kelmaydigan yashash uchun daromadning minimal darajasi rasmiy belgilab qo‘yilmagan;

- soliqqa tortishni amalga oshirish bilan davlat o‘zi erishadigan ijtimoiy maqsadlarni aniq ifodalamayotir;

- “erishish lozim bo‘lgan yoki namunali turmush tarzi”ni aniqlash va uni o‘lchash mezonlarida aniqlik yo‘q. Buning oqibatida, davlat soliq siyosati ko‘proq davlatning ijtimoiy funksiyalari bajarilishini ta‘minlashga hamda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglikka erishishning strategik vazifalarini hal etishga emas, balki ko‘proq joriy fiskal extiyojlarni qondirishgagina qaratilmoqda.

<sup>3</sup> <https://soliq.uz/page/jismoniy-shaxslarga-soliq-solish>

## REFERENCES

1. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF FUTURE TEACHERS. *Modern Science and Research*, 3(5), 386-392.
2. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. *Modern Science and Research*, 3(5), 417-425.
3. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
4. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
5. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
6. Shadiyev, A. K. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 87-93.
7. Шадиёв, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 31-32.
8. Shadiyev, A. (2022). О ‘QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O ‘QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz), 13(13).
9. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
10. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
11. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
12. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
13. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 134-139.
14. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
15. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибadorлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.
16. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.

17. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.
18. Bazarova, M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 563-567.
19. Жумаева, З. К. (2023). ПУТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 530-533.
20. Jumayeva, Z. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE INDUSTRIES AS A FACTOR OF GROWTH OF NATIONAL ECONOMY: REVIEW OF FOREIGN EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 241-246.
21. Jumayeva, Z. Q. (2017). THEORIES OF ENSURE STABILITY IN LABOUR MARKETS OF DEVELOPED COUNTRIES. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.
22. Nafisa, R. (2024). Organization of Management in Small Business and Private Entrepreneurship. *Miasto Przyszłości*, 48, 503-509.
23. Junaydulloevich, A. A., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. Business and Product Delivery in the Context of Covid-19. *JournalNX*, 1305-1307.
24. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
25. Таирова, М. М., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Стратегия развития управления цепями поставок в обрабатывающей промышленности. *International scientific review*, (LXXI), 56-58.
26. Ibdulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
27. Ibdulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
28. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.
29. Ibdulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 608-615.
30. Ikromov, E. (2024). A METHODOICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
31. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.
32. Ibdulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
33. Ibdulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.

34. Zamira, J. (2024). ENSURING ECONOMIC SECURITY IN THE BANKING SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 343-348.
35. Jumayeva, Z. (2024). IQTISODIYOT RIVOJIDA INNOVATSIYANING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(5), 504-511.
36. Jumayeva, Z. (2024). MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 3(5), 512-518.
37. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
38. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONANING MOLIVAVIY BAQARORLIGI: OMILLARI VA KO 'RSATKICHALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 140-146.
39. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
40. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
41. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
42. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. *Modern Science and Research*, 3(2), 376-384.
43. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHİYATI.
44. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO 'MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.
45. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, 3(5), 306-312.
46. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI-MA'MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 371-377.
47. Hakimovich, T. M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI.
48. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
49. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 353-358.
50. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
51. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
52. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477-482.

53. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
54. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
55. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.